



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**



ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI



**“O‘ZBEKISTONDA ILM-FAN VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
MAVZUSIDA**

**XALQARO ILMIY-TEXNIK ANJUMAN
MATERIALLAR TO‘PLAMI**

ANDIJON 2023

Harbiy texnikalarni ekspluatatsiyasida tabiiy fanlarni integratsiyasi <i>Vorisova R.S.</i>	1018
Kimyofanini o'qitishda didaktik o'yinlarni o'rni va ahamiyati <i>To'xtaniyozova F.O</i>	1022
Mexatronika va robototexnikada ikki karrali integralning mexanik tatbiqlari <i>Zulfixarov I.M, Mamasidiqov B.Q</i>	1027
Axborot texnologiyalari dunyosida sun'iy intellektning o'rni <i>Narbekov B.B</i>	1030
Kimyofani o'qitish metodikasi didaktika <i>To'xtaniyozova F.O</i>	1032
Mathematical modeling and computer models <i>Yusupov M.T</i>	1035
Математические моделирование и результаты процесса сушки винограда <i>Юсупов М.Т.</i>	1042
Обтекание угла больше 180° двухфазным потоком с учетом теплообмена между фазами <i>Джалилова Т.А, Озодов А</i>	1046
Ikki karrali fure qatorlarining doiraviy qisimiy yig'indisi uchun umumlashgan lokalizatsiya masalasi <i>Sayidjonova M, Maxmudjonov O.A</i>	1048
Chiziqli tenglamalar sistemasining tadbiqlarini bo'lg'usi muxandislarga o'qitish haqida <i>Xalilov M.D, Toxirov S.Sh</i>	1051
Obyektlarning tezliklari sekinlashuvchi bo'lgan holda sodda harakatli differensial o'yin <i>Xo'jamberdiyev Sh, Anvarov A.I</i>	1055

1. Prezident Sh. Mirziyoyevning Uzbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi, Vatanparvar, 2023 yil, 14 yanvar.

2. Z. Alimova –Transport vositalarida ishlatiladigan ekspluatatsion materiallar, Toshkent, 2011yil.

KIMYO FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARNI O'RNI VA AHAMIYATI

To'xtaniyozova Farida Ortiqovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada kimyo fanini o'qitishda o'yin metodlaridan foydalanishning ahamiyati va bu o'yinlar orqali o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini orttirish..

Kalit so'zlar: ta'lim, uzluksizlik, intellektual, didaktik o'yinlar, kuzatish, rolli o'yin.

Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimda ortiqcha takroriylikka chek qo'yib, avvalo jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatining faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchiga ijobiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy

fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq – odob o'rgatish, nutq o'stirish til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'rdam beradi. Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim – tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini oshirib borishi bilan alohida o'ringa ega.


Quyida kimyo darslarida didaktik o'yinlar qo'llash haqida fikr yuritamiz.

Ishchanlik o'yin darsi – dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi. Kimyoda “7-sinfda Suvning tarkibi va xossalari” mavzusida o'quvchilarni 3 ta kichik guruhlariga bo'lib har bir guruhga sovollar beriladi.

1.Suv qanday modda? 2. Suvdan qanday foydalanamiz? 3.Suvning tarkibi qanday?

Rolli o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi.

Masalan: 7-sinfda “Birikmalardagi elementlar atomlarining valentligi” mavzusida o'quvchilarga element belgilari berilib ularni valentlik asosida birikishi ko'rsatiladi.



Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

8-sinf “Elektrolitlar va elektrolitmaslar ”mavzusiga sahna ko'rinishi tayyorlash mumkin.

Kompyuter darsi – tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi – o‘quv fani ayrim bo‘limi bo‘yicha bilimlarni har bir o‘quvchi qanchalik ko‘p bilishini namoyish etish darsi. Bunda o‘quvchilarga sovollarni berib to‘g‘ri lavoblarni yutib olishini tashkil qilinadi.

Yamarka darsi – dars mavzusini bo‘laklar bo‘yicha oldindan o‘zlashtirish o‘quvchilarning o‘zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o‘tiladigan dars.

Formulalar darsi – o‘quvchilarning formulalarni puxta o‘zlashtirishlari bo‘yicha turli o‘yinlar shaklidagi mashqlar o‘tkazish darsi. Bunda o‘quvchilarga reaksiya tenglamalari yozilgan varaqlar beriladi va ularga mos sherikni toppish aytiladi, natijada o‘quvch bilimini tekshirish mumkin.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi – dars mavzusini oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol – javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars – bir nechta fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo‘lgan mavzular bo‘yicha tashkil qilingan dars. Yuqoridagi fikrlar asosida kimyo fanidan didaktik o‘yinlar ishlab chiqish va imkon qadar kompyuter o‘yinlari tarzida yaratib, dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini orttiradi. Kimyo fanidan yaratilgan o‘yin dasturlari o‘quvchilarda o‘quv motivatsiyasini shakllantirishga, ijodiy fikrlashga, mustaqil ishlash va bilim boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Borisov I.N. «Kimyo o‘qitish uslubiyoti». T.: «O‘qituvchi». 1966.
2. Abdullayev Sh.B. «Kimyo o‘qitish uslubiyotidan ma’ruzalar matni». Namangan, Faxrizoda xususiy kichik korxonasi, 2002.
3. Yuldashev, O. (2021). Расчёт силовых характеристик технологического процесса обработки почвы. наука и мир.